

TARBIYACHILARDA KREATIVLIKNI SHAKLLANTIRISHNING INNOVATSION YONDASHUVLARI

*Farg'ona viloyat pedagogik mahorat markazi
Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim metodikalari
kafedrası professor-o'qituvchisi Nurmatova Nargiza*

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyachilarda kreativlikni shakllantirishning nazariy asoslari va amaliy yo'llari yoritilgan. Kreativlik tushunchasining pedagogik jarayondagi o'rni, tarbiyachining kasbiy faoliyatida uning ahamiyati hamda bolalarda ijodiy tafakkurni rivojlantirishdagi roli tahlil qilingan. Shuningdek, STEAM-ta'lim, Montessori metodikasi, interfaol metodlar va raqamli texnologiyalar kabi innovatsion yondashuvlarning afzalliklari ko'rsatib berilgan. Maqola tarbiyachilarning shaxsiy fazilatlarini va kreativ kompetensiyalarini rivojlantirishning dolzarbligini asoslaydi.

Kalit so'zlar: kreativlik, innovatsion yondashuv, maktabgacha ta'lim, tarbiyachi, pedagogik jarayon, ijodiy tafakkur, kompetensiya.

Globalashuv sharoitida ta'lim tizimida innovatsion yondashuvlarga bo'lgan talab ortib bormoqda. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyat yurituvchi tarbiyachilardan yangicha fikrlash, muammolarga noodatiy yondashish va bolalarning ijodiy rivojlanishini ta'minlash kutilmoqda. Shu bois tarbiyachilarda kreativlikni shakllantirish zamonaviy pedagogikaning eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017-yil 9-sentyabrda qabul qilingan "Maktabgacha ta'lim muassasalarini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, shunga doir farmoyishlari, ommaviy chiqishlarida uzluksiz ta'limning muhim bo'g'ini bo'lgan maktabgacha ta'lim muassasalarini tubdan takomillashtirish, uning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash o'ta muhim vazifalardan biri sifatida e'tirof etilmoqda Prezidentimiz SH.Mirziyoyevning Oliy Majlisga murojaatnomasida "bola dunyoga kelganidan boshlab, unda aynan maktabgacha bo'lgan yoshda aqliy faollik oshadi, axloqiyestetik va jismoniy xislatlar shakllanadi. Shu bois ham kelgusi yillarda maktabgacha ta'lim sohasini rivojlantirish borasidagi strategik maqsadimiz- bog'cha yoshidagi har bir bolani ushbu ta'lim yo'nalishi bilan to'liq qamrab olinishi uchun zarur sharoitlarni yaratishdan iborat." deya fikr bildirgan Bo'lajak pedagoglar kreativlik rag'batlantirilsa va samimiy muhit yaratilsagina, kreativ fikrlashni odatga aylantira oladilar. Kreativ muhitda o'qituvchi va bo'lajak pedagoglar boshqalarga nisbatan samimiy munosabatda bo'lishni va ularning fikr mulohazalarini hurmat qilishni o'rganadilar. Xato qilishdan yoki muvaffaqiyatsizlikka uchrashdan qo'rqish, haddan tashqari

baholarga e'tibor qaratish, boshqalardan ajralib turish, mensimaslik va tanqidga uchrashdan, kamsitilishdan qo'rqish hissi mavjud bo'lajak pedagoglarda kreativlik odatga aylanmaydi.

1. Kreativlik tushunchasi va ahamiyati

Kreativlik – yangilik yaratish, muammolarni noodatiy hal etish va ijodiy tafakkur orqali samarali natijalarga erishish qobiliyatidir. Tarbiyachilar uchun kreativlik bolalarning qiziqishini uyg'otish, ta'lim jarayonini jonli va samarali tashkil etishda muhim vositadir.

2. Tarbiyachilarda kreativlikni shakllantirish zaruriyati

Bolalarda mustaqil fikrlashni rivojlantirish;

Innovatsion metodlarni qo'llash;

Tarbiyachining kasbiy mahoratini oshirish;

Shaxsga yo'naltirilgan ta'limni amalga oshirish.

3. Innovatsion yondashuvlar

STEAM-ta'lim – fan, texnologiya, san'at va matematika asosida kreativlikni kuchaytirish;

Montessori metodikasi – bolalarda mustaqillik va erkin faoliyatni rivojlantirish;

Interfaol metodlar – “Aqliy hujum”, “Klaster”, “Rol o'ynash” kabi usullari

Raqamli texnologiyalar – multimedialar, interaktiv dasturlar, o'yinli platformalar.

4. Tarbiyachining shaxsiy fazilatlari

Kreativ tarbiyachi yangilikka ochiq, tashabbuskor, ijodiy tasavvurga ega va bolalar psixologiyasini chuqur tushunadigan shaxs bo'lishi lozim. Tarbiyachilarda kreativlikni shakllantirish bolalarning ijodiy tafakkurini rivojlantirish, ta'lim jarayonini samarali tashkil etish va kelajak avlodning intellektual salohiyatini yuksaltirishda muhim ahamiyatga ega. Innovatsion yondashuvlar bu jarayonning zamonaviy va samarali yo'nalishi hisoblanadi.

Tarbiyachilarning pedagogik faoliyatiga kreativ yondashuv yosh avlod vakillarida zamonaviy jamiyatimizga kirib kelayotgan innovatsion texnologik jarayonlarda faol bo'lish imkoniyatlarini kengaytiradi, kreativ fikrlash ko'nikmalarini yanada shakllantirib, erkin mavzularda erkin fikr bildirish bilan birga o'xshamas, o'zgalar fikridan ajralib turuvchi fikrlarni namoyon qilish xislatlarini oshiradi. Pedagogik amaliyot davrida bo'lajak pedagog tarbiyachining maktabda amalga oshiradigan ishlari ularda kasbiy mahoratni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Pedagogik amaliyot davrida bo'lajak pedagog-tarbiyachilarda o'z kasbiga moyillik, pedagogik faoliyatga ijodiy yondashish, o'zi egallagan zamonaviy bilimlarni amaliy tajribasida qo'llash, rahbarlik ko'nikmalarini egallash, tarbiyachi shaxsini pedagogikpsixologik jihatdan o'rganish, tahlil qilish, madaniy ommaviy tadbirlarni tashkil etish metodlarini o'zlashtirish kabi ko'nikmalar faollashadi hamda

mustahkamlanadi[8]. Bularning barchasi bo'lajak pedagog tarbiyachini tarbiyachilik faoliyatiga tayyorlaydi. Shu bilan bir qatorda bo'lajak pedagog tarbiyachilar o'z kasbiy faoliyatlari davomida amal qiladigan bir qator qoidalarni ham o'zlashtirishlari kerak.

Kreativlikni: ijodga intilish, hayotga ijodiy yondashish, o'ziga doimiy tanqidiy nazar solish va tahlil etish deyish mumkin. Hozirgi zamon psixologiya va-pedagogika lug'atlariga asoslanib o'qituvchining kreativligi deb uning fikrlaridagi sezgilaridagi, muloqotdagi, alohida faoliyat turidagi, ijodiy yondashish, bilish darajasi deb ta'riflash mumkin. Kreativlik insonda mavjud ma'lumotlarni qayta ishlab chiqarish va ularni cheksiz yangi modelini yaratishga javob beradi. Ta'lim sohasiga qo'yiladigan talablar orasida maktabgacha ta'lim tashkilotlari mutaxassislarining kasbiy va kreativ kompetentligini oshirish uchun qator chora-tadbirlar yo'lga qo'yilgan. Shunday ekan, maktabgacha ta'lim tizimida eng muhim ehtiyoj maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarining kasbiy yetukligi bilan birga kreativ kompetentligi hamdir. Pedagog shaxsiga qo'yiladigan talab — eng avvalo o'z ustida izlanishlar olib borishidir. Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisining kasbiy yetukligi va kreativ potensialga egaligi ta'lim sifatini oshirish uchun xalq hamda jamiyat oldidagi o'z mas'uliyatini samarali anglashga, ta'lim-tarbiya jarayoniga ijodiy yondashishga, o'z mahoratini doimo takomillashtirib borish va ishdagi o'rtoqlarini o'sishiga yordam beradi. Shuningdek, tarbiyachining kreativligi, hodisalarni tahlil qilishga ilmiy nuqtai nazardan ijodiy yondashuvi bolani har tomonlama rivojlantirish muvaffaqiyatini amalga oshirishga imkon beradi. Bu esa o'z-o'zidan shuni ko'rsatadiki, bo'lajak tarbiyachilarini tayyorlayotgan oliy ta'lim muassasalarida faoliyat yuritadigan pedagoglardan ham o'quv jarayoniga mazmunan va shaklan yangiliklar kiritishni, ta'lim jarayoniga kreativlikni olib kirishni taqozo etadi. Bu kabi islohotlar o'z navbatida oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan bo'lajak tarbiyachilarining kreativlik kompetentligini shakllanishiga turtki bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'RQ-637-son
2. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrdagi "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi 595-sonli Qonuni
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 22-dekabrdagi "Maktabgacha ta'lim va tarbiyaning Davlat standarti" 802-sonli Qarori
4. Mirziyoyev Sh.M. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. – T.: "O'zbekiston", 2020 yil 29-dekabr.
5. Axmedova X., Raximova L. Bolaga yo'naltirilgan ta'lim» dasturini tashkil etish. T.: 2012-y.

6. Qodirova F.R., Toshpo'latova Sh.Q., Kayumova N.M., A'zamova M.N. "Maktabgacha pedagogika" 5111800- Maktabgacha ta'lim bakalavriat ta'lim yo'nalishi talabalari uchun darslik. Toshkent-2019
7. A.Xoliqov. Pedagogik mahorat. – Toshkent, 2010, -367 b
8. www.ziyo.uz.com.
9. www.pedagog.uz
10. www.arxiv.uz
11. www.ziynet.uz
12. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=07f0edgAAAAJ&citation_for_view=07f0edgAAAAJ:9yKSN-GCB0IC
13. [KOUCHING TEXNOLOGIYASI PEDAGOGIK KOMPETENTSIYANI OSHIRISH SHAKLI SIFATIDA](#) I Tuychiyeva, M Hokimjonova, D Muqimova - ... : Innovative, educational, natural and social sciences, 2022